



BOLALAR FOLKLORI UNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Xamidova Mohinaxon

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
katta o'qituvchisi

Saidaliyeva Diyora

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
3-bosqich talabasi



Annotation

Ushbu maqolada folklor - xalq ijodi, uning janrlari, uning kelib chiqish bosqichlari, bolalar folklori, bolalar adabiyotida folkloarning o'rni va ahamiyati, jahon bolalar folklori, hozirgi davr bolalar adabiyotida foklor janri, taomlanish motivining folklordagi o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: folklor, folklorshunoslik, xalq og'zaki ijodi, topishmoq, matal, ertak, tez aytish, maqol, lapar, askiya, latifa, sanamachoq, qo'shiq, doston, afsona

Abstract

This article talks about folklore, folk art, its genres, stages of its origin, children's folklore, the place and importance of folklore in children's literature, world children's folklore, the genre of folklore in children's literature of the present time, the role of the motif of food in folklore.

Key words: folklore, folkloristics, riddle, matal(tale), tale, tongue twister, proverb, lapar(national song), askiya(the art of wit), latifa(disambiguation) , song, epic, legend

Folklor barcha san'atning boshlanishi.Xalq taqdiri bilan chambarchas bog'liq jarayyondir. U musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy va badiiy san'atlar bilan bog'liq tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Xalq ijodi bu chinakam ma'nodagi doimiy o'zgarish, doimiy harakatdagi san'atdir. Ya'ni, xalq ijodi namunalari har galgi ijroda an'analarning davomiyligini saqlagan holda muttasil yangilanib, o'zgarib,



mukammallahib boraveradi. Shuning uchun ham xalq ijodi namunalari ko‘plab variantlilikka ega. Ana shu variantlilik xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xosligini ta’minlab beruvchi eng muhim jihatlardan biridir.

Folklor (*inglizchadan folk* — „xalq“, *lore* — „og‘iz adabiyoti“ atamalari qo‘llangan. „Folklor“ termini 30-yillarning o‘rtalaridan ishlatala boshlagan Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yozib olish bo‘yicha dastlabki tajribalar 11 asrdan boshlab ko‘zga tashlanadi (Maxmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asaridagi folklor materiallari). Shu bilan birga, yozuvchi va shoirlar tomonidan ertaklar, miflar, afsona va rivoyatlarni qayta ishlash jarayoni ham boshlandi. 18-asr va 19-asr boshlarida folkloriga nisbatan ilmiy qiziqishning kuchayishi, xalq og‘zaki ijodi materiallarini to‘plash va nashr etish jadal rivojlanishi bilan bog‘liq holda uni chinakamiga o‘rganish boshlandi.¹

Folklorshunos olimlar Folklorshunoslik-xalq ijodi haqidagi fan hisoblanadi. Shuning uchun ham ularning ma’lum bir muallifi bo’lmaydi. Ammo unga o‘z hissasini qo’shgan olimlarimiz ham ko‘p.

Folklorshunoslik - xalq ijodi haqidagi fan. Folklorshunoslik turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelgan. Keyinchalik xalq san’atini (xalq og‘zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirkni kabi) o‘rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi. Filologiya va san’atshunoslik fanlari bilan uzviy bog‘liqidir.²

O‘zbek folklorshunoslik janrlari nomlanishi

O‘zbek tilida	Ingliz tilida	Rus tilida
Ertak	Fairy tale	Сказка
Doston	Epic	Эпический
Afsona	Legend	Легенда
Maqollar	Proverbs	Пословицы
Matallar	Proverbs	Пословицы
Qo’shiqlar	Songs	Песни
Tez aytishlar	Tongue twister	скороговорка
Topishmoq	riddle	загадка
Latifalar	Anecdotes	Анекдоты
Askiya	Askia (the art of wit)	Аския (Анекдоты)
Sanamachoq	It’s a game for children using numbers	Это игра для детей с использованием чисел

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).

² Sulaymonov. M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Namangan. - 2008. 31b.



Afsonalar uydirma va to‘qimadan iborat bo‘lsada, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo‘lib o‘tgan davri, makon ham ko‘rsatiladi. Afsonalar dunyodagi deyarli hamma xalqlar og’zaki ijodining eng qadimgi, aziz va ommaviy janrlaridandir. Ularda tarixiy hayotda ro’y bermagan bolsada, ro’y berishi mumkin bo’lgan voqealar hikoya qilinadi.

Masalan, Shiroq, To’maris afsonalari. Ularda necha yillik xalq orzusi bitta qahramonda mujassam va xalqning xaloskor qahramoni gavdalantiriladi. Jonini havf-hatarga qo’ysada Vatani ravnaqi va ozodligi yo’lida kurashadilar.

Maqollar donishmandlikning mahsulidir. Ular ona- vatanni sevishga ,uning har bir qarich yeri uchun kurashishga, kasb-hunar egasi bo’lishga, ahil bo‘lib mehnat qilishga, to’g’ri so’z bo’lishga hamda odobli bo’lishga chaqiradi.

Masalan, ”Yigit kishiga yetmish hunar ham oz”, ”Egri ozadi, to’g’ri o’zadi”.

Topishmoqlar xalq og’zaki ijodining o’ylashga topqirlikka undovchi qadimiylardan biridir.Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti bilan bog’liq va bolalar orasida keng tarqalgan.Masalan,

Qishda terlab ishlaydi,

Boshqa mahal ishlaydi.

(pechka)

Tez aytishlar og’zaki nutq mashqi bo‘lib, bolalarda ma’lum tovushlarni to’g’ri va ohangdor talaffuz qilishga yordam beradi. Xotirani ham mustahkamlaydi.

Misol uchun: Oq choynakka oq qopqoq, ko’k choynakka ko’k qopqoq.

Ertaklar xalq og’zaki ijodininhg eng boy va rang-barang janrlaridan biri.Ertaklar insонning axloqiy va ma’naviy yo’ldoshidir.Ertaklar soda va tushunarli bo’lganligi sabab har qanday kitobxonga tez yetib boradi.

Qo’shiq. Xalq qo’shiqlari og’zaki ijodimizning lirik janridir.

“Qo’shiq” atamasi qadimiylar turkiy tildagi “qo’shdı” fe’lining o’zagidan yasalgan bo‘lib, misraga misrani qo’shib kuylash. Qo’shiqlar xalq ma’naviyatining qudratini, fidokorona mehnatini, omma irodasining bukilmasligini ifodalab, kishilarni ruxan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlik va elparvarlikka vatanparvarlik va do’stlikka, sevgi sadoqatka chorlaydi.³

³ Sulaymonov. M. O’zbek xalq og’zaki ijodi. Namangan. - 2008. 31b.



Doston og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan. Dostonda muayyan voqealiro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, vogelik keng ko‘lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko‘p bo‘ladi. Ularda vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, do‘stlik va sadoqat, mehnatsevarlik g‘oyalari ilgari surilad Birgina “Alpomish” dostonini olib qaraylik. Mazkur doston nafaqat o‘zbek, balki dunyo dostonchiligida alohida mavqega ega, tarixiy asoslari qadimiy, badiiy jihatdan yuksak epik ijod namunasi hisoblanadi

Matal - u yoki bu vogelikk emmotsionalik tus beruvchi, xalq og‘zaki ijodi janrlaridan hisoblanadi. Matall xalq maqollariga oxshash bo‘lsa-da, lekin oziga hos jihatlari bilan undan ajralib turadi. Matal ko‘chma ma’noda ishatiluvchi xalq ma’joziy iboralarining bir turi.

Masalan,

Har bir ishni ustasi qilsa yaxshi, mazmuni
“Chumchuq so’ysa ham qassob so’ysin”.

Latifa ([arabchadan mutoyiba, hazil](#)) — xalq hajviyoti janrlaridan, tanqidiy mazmundagi qisqa yumoristik hikoya Latifa syujetini **qochiriq, kesatik, piching to‘la** hajviy epizod va holatlar tashkil etadi.

HALI VAQT BOR...

-Doktor, ancha yaxshi bo‘lib qoldim. Davolaganingiz uchun sizga qancha to’lashim kerak?

-Hali vaqt bor, shoshilmang. Haq to’lash uchun kuch-quvvatga to’lganizcha yo‘q.⁴

ASKIYA (arab, zakiy — o‘tkir zehnli, hozirjavob) — o‘zbek [xalq](#) og‘zaki ijodi turi; [folklor](#) janri; ikki va undan ziyod kishi yoki guruhning xalq yig‘inlari (sayil, to‘y, [bayram](#))da ma’lum [mavzu](#) bo‘yicha badiiy so‘zda tortishuvi.

Qadimdan ustoz san’atkor askiyachilar yaratgan va ijro etgan milliy an’anaviy askiya payrovleri bor:

1. ”Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz”.
2. ”O’xshatdim

⁴Hali vaqt bor. Nasriddin Afandi. (Xalq og‘zaki ijodidan).



Sanamachoqlar - keng tarqalgan o'yinboshi badihalari bo'lib, o'yin boshlanishi oldidan navbatda turuvchini aniqlash, galda qoluvchini belgilash vazifasini bajaradi. Sanamalarda sanash ohangi qo'l yoki oyoq harakatlari bilan to'ldirilib, tasdiqlanib turiladi. eng so'nggi so'z kimning chekiga tushsa, o'sha navbatda qoladi.

Bir-ikki, olmadi ikki,
Safar oyi, sariq chumchuq .
Bog'da turmay, tezroq uchib chiq,
Sen turib , sen chiq.

Jahon bolalar folklori haqida Bolalarga atalgan badiiy adabiyot yaratish an'anasing dastlab, adabiy ertak shaklida namoyon bo'lganligini Daniel Defo, Jonatan Swift, Jan de Lafonten, Sharl Pero, Erix Rapse, aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmilar ,Vilgelm Gauf, Hans Kristian Andersen, Karlo Kollodi, V. Jukovskiy, P.Yershov va boshqalar ijodiyotida keng miqyosda ko'zga tashlanadi. "Men o'ylaymanki-deb yozgan edi J.Radari – ertaklarning ham yangisi, ham eskisi aqlni tarbiyalashda yordam bera oladi.

O'zbek bolalar folklori rivojlanishi haqida. Bolalar falklori ko'pincha kattalar tomonidan ijod qolinadi. Ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari o'zlari ham alla, qo'shiq va ovutmachoqlar to'qiydilar. Bularning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani targ'ib qiladi.⁵

Xalq qoshiqlari va dostonlari qatorida ertaklarni yozib olish va nashr etishda samarali erishila boshlandi. Bu ishda Elbek, G'ulom Zafariy va Skukur Sa'dulla singari bolalar adiblari ancha faollik ko'rsatadilar. Ayniqsa Elbek bolalar folklorini to'plash yo'lida qizg'in izlanib, 1937-yilda o'zi to'plagan asarlar asosida tartib bergen "Bolalar qo'shig'i" to'plamini nashr ettiradi. 20-asrning 60-80-yillarida bolalar adabiyoti vakillarining folkloriga ijodiy munosabati yanada chuqurlashib bordi. Pushkin ertaklari badiiy yuksakligi jihatdan eng salmoqli adabiy janrlardandir. Uning ertaklarini butun dunyo bolalari, kattalar ham sevib mutolaa qiladi. Xalq ijodidan-falklorshunos asarlaridan mohirlik bilan foydalanadi.

Masalan, "Jannat", "Zangori gilam"(G'ofur G'ulom) "Oq terakmi ko'k terak", "Chitti gul", "Buni toping, qizlarim" she'rlari xalq og'zaki ijodidagi o'yin va

⁵ "BOLALAR ADABIYOTI VA FOLKLOR". O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent- 2006, 6-bet.



topishmoq-qo'shiqar asosida yaratilgan asarlar sifatida bolalar adabiyotimiz xazinasini boyitishga hizmat qiladi. Z.DIiyor she'rlari bolalar falklorida mashur "Qaldirg'och-g'och-g'och,
Eshigigni, och-och.

Uning she'rlarida ekologik tarbiya g'oyasi kuchli.

Bolalar adabiyotida folkloarning o'rni va ahamiyati. Doston talqinidan insoniyat tarixi hamisha erk va adolat uchun kurashdan iborat bo'lib kelgan, Xalq ijodiyotida ham, mumtoz adabiyotda ham bu kurash turli shakllarda, jumladan, ozod va farovon yurt shaklida talqin qilinganligi ravshanlashadi. Eng katta hajmlardan biri hisoblanadi bolalar folklori. U kattalar tomonidan bolalar uchun yaratilgan, shuningdek bolalarning o'zlari tomonidan yaratilgan asarlarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori xalq pedagogikasining bir qismidir.

Hozirgi davrda bolalar adabiyotida folklor janrilarining barchasi oldingidek ommalashgan deya olmaymiz. Hozirgi kun bolalari uchun multfilmlarning turli tumanligi yoki ko'cha-ko'ydag'i bolalar o'ynaydigan mavsumiy o'yinlarning kamayganligi boisdan folkloarning ayrimlari, laparlar, xalq qo'shiqlari, sanamalar, matallar, askiyalar, dostonchilik va afsonalarga qiziqishlari biroz susaygan. Faqatgina maktabgacha ta'lim muassasalarida yoki boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tadbirdagina saqlanib kuylanib kelinmoqda. Shununig o'zi ham quvonali, albatta. Yosh avlod tadbiyasida ajdodlar usulida – xalq og'zaki ijodi namunalarida, ayniqsa laparlar, xalq qo'shiqlari kabilidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Folklor janirining bola tarbiyasida tutgan o'rni A.Avloniy tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va uni "yo hayot, yo mamot masalasi" deb biladi. Asarlarda yaxshilik va yomonlik, tadbirkorlik va takabburlik, mehr va g'azab, sabr bilan toqatsizlik o'rtasida shafqatsiz kurash ifodalanib, ezgulik tantanasi ko'rsatiladi. Bolalarga shu tushunchaning mohiyati tushuntiriladi. Bu asarlar bolalarda yuksak insoniy fazilatlarni, tarbiyalashda va ularni zavqini, qiziqishlarini oshirishda yordam beradi.

Taomlanish bilan bog'liq bolalar folkloridan namunalar

Biz bilsizki bolalar folklori namunalari bizda juda ham ko'p asrlar oshgani sari ko'payib bormoqda. Ular bolalarni tarbiyaga, ozodalikka mehnatkashlikka so'lom turmush tarziga chaqiradi. Har bir ertakda yoki dostonlarda bolalarni taomlanishiga



alohida e'tibor beriladi. Bunda bolalarga ko'proq tabiiy ne'matlarni iste'mol qilishlari kerakligi, ularning sifatlari keltirib o'tiladi.

Masalan, xalq ertaklarining birida:

"Lekin Nanayning naqshin olmalarini-yu oltindek behilari, sersuv noklari-yu choynakdek anorlari, har biri salkam kichik piyoladek keladigan o'rikлari-yu shirasi tilni yoradigan olxo'rilar bu yog'i Namanganga, u yog'i Qирг'изистонning Karvoniyu Olabug'asiga, Pochchatoy-u Sarichelakka mashhur ekan.⁶

Bu ertakda bolalarga o'lкамиз mevalarini naqadar chiroyliligi, shirinligi tasvirlab o'tilgan. Tabiiy yeguliklarni keltirib o'tilishi bejiz emas, ularni tarkibida bolalarbi organizmi uchun nafaqat bolalar, kattalar uchun ham foydali vitaminlar bor. Hozirgi kun bolasining nafaqat axloqi va badani ham tarbiya topmog'i kerak. Buning uchun undagi badan tarbiya yoshligidan o'qilib, o'rgatilib borilishi zarur. Albatta, bizga bunda ertaklar yordami beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolalar adabiyoti va folklor".O'zbekiston.Yozuvchilar Uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi. Toshkent. - 2006, 6-Bet.
2. "Hali vaqt bor "Nasriddin Afandi.(Xalq og'zaki ijodidan)
3. Sulaymonov M. "O'zbek xalq og'zaki ijodi". – 2008, 31-bet.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
5. O'zbek xalq ertaklari."Jasur qiz" .Meriyus, Toshkent. – 2011,18-bet.

⁶ O'zbek xalq ertaklari."Jasur qiz".Meriyus. -TOSHKENT. 2011, 18-bet.